

BOJXONA AUDITI - HALOL TADBIRKOR TAYANCHI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10785523>

Abdukaxxarov Shuxrat Abidjanovich

Bojxona instituti Magistratura bosqichi tinglovchisi, Toshkent shahri, O'zbekiston

Respublikasi,

e-mail: shuxratabdukaxxarov1987@mail.ru

Azizov Sherzod

Bojxona institutui Bojxona nazorati kafedrasi boshlig'i, i.f.d., dotsent.

Annotatsiya

Ushbu maqolada milliy bojxona tizimida xavflarni boshqarish tizimi ma'lumotlariga tayangan holda tanlab tekshirishga asoslangan bojxona auditi faoliyati joriy etilishi, bugungi kundagi ayrim muammolar va ularni hal etilishi uchun amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, bojxona auditining halol tadbirkorlar uchun afzalliklari keltirilgan.

Kalit so'zlar

Bojxona auditi, Jahon bojxona tashkiloti, xavf profillari, xavf mezonlari, xavf indikatorlarini, komplayens nazorat.

Аннотация

В данной статье рассматривается внедрение в национальной таможенной системе деятельности таможенного аудита, основанной на выборочной проверке с опорой на данные системы управления рисками, рассматриваются некоторые современные проблемы и меры, принимаемые для их решения, преимущества таможенного аудита для добросовестных предпринимателей.

Ключевые слова

Таможенный аудит, мировая таможенная организация, профили рисков, критерии риска, индикаторы риска, контроль соответствия.

Abstract

This article examines the implementation of customs audit activities in the national customs system based on random verification based on data from the risk management system, examines some modern problems and measures taken to solve them, the advantages of customs audit for bona fide entrepreneurs.

Key words

Customs audit, world customs organization, risk profiles, risk criteria, risk indicators, compliance control.

Kirish.

Davlat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi bevosita manfaatli xalqaro iqtisodiy munosabatlar olib borilishi shuningdek, samarali tashqi savdo faoliyatini olib borishga bevosita bog'liq. Tashqi savdo faoliyatini muvofiqlashtirish, uning mamlakat iqtisodiy rivojlanishida asosiy unsur sifatida xizmat qilishini ta'minlashda Tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari va bojxona organlarining o'zaro hamkorligi, bojxona nazoratini optimallashtirish, va zamonaviy bojxona nazorati shakllaridan unumli foydalanish muhim o'rin tutadi. Chunki, davlatning tashqi savdo faoliyatini tariff va notarif choralar asosida tartibga solish, ichki bozorni himoyalash, iqtisodiyotni rivojlantirishni rag'batlantirish mamlakat iqtisodiy havfsizligini ta'minlash bevosita bojxona organlari zimmasidagi vazifa bo'lsa, tashqi savdo faoliyatini jadallashtirish, mamlakatning horijiy davlatlar bilan manfaatli hamkorliginni ta'minlash, aholi daromadlarini oshirish tadbirkorlarning samarali tashqi iqtisodiy faoliyat yuritishiga bevosita bog'liq.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuvi, tashkiliy huquqiy, moliyaviy, boshqaruv jihatidan jahonning rivojlangan davlatlari qatoriga chiqish zaruriyati, O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar tashqi iqtisodiy faoliyatga, uni erkinlashtirishga hamda ushbu yo'nalishda bundan keyin amalga oshiriladigan islohotlarga yangicha yondoshish zarurligini ko'rsatmoqda. Ya'ni, respublikada tashqi iqtisodiy faoliyatni liberallashtirish, investitsion jozibadorlikni oshirish va mamlakatning esport salohiyatini mustahkamlash bo'yicha vazifalar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Hususan, "O'zbekiston-2030" strategiyasida ham "milliy iqtisodiyotni eksport salohiyatini kuchaytirish va uning tarkibida qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan mahsulotlar ulushini keskin oshirish" ya'ni "eksport hajmini 2 barobar oshirish va 45 milliard dollarga etkazish, eksportchi korxonalar sonini 6,5 mingtadan 15 mingtaga yetkazish" kabi ustuvor vazifalar belgilanishi buning yaqqol misolidir.[1] Mazkur vazivalarni sifatli va to'laqonli bajarilishini ta'minlashda vijdonli tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash, ular uchun har qanday turdagi bojxona imtiyozlaridan foydalanish imkoniyatlarini yaratish, ya'ni bojxona mamurchiligida eng zamonaviy nazorat metodlaridan foydalanish bugubgi kundagi eng dolzarb vazifalardan biridir.

Ushbu maqsadlarga erishish mexanizmi sifatida jahonda umumqabul qilingan zamonaviy normalar, standartlar, shu jumladan Xalqaro Kioto konvensiyasining 6-bob, 6.6 standarti talablari, Umumjahon bojxona tashkiloti 1 va 2-tavsiyalari, Jahon Bojxona Tashkiloti Bojxona kodeksining 66, 99, 122, 131,

186 moddalaridagi talablar, Jahon savdo tashkilotining 7-moddasi 7.5- bandidagi talablar, BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasining “Xalqaro savdo tartib – taomillarini soddalashtirish choralari” bo‘yicha №184 tavsiyalarida tizimga bojxona auditini bosqichma-bosqich joriy etish eng optimal echim sifatida tavsiya etiladi. Kelingi vaqtlarda jahonda mazkun normalar asosida bojxona auditidan keng foydalanilmoqda va yuqori samara bermoqda. Shubhasiz, tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi kompaniyaning barqaror faoliyatiga erishishning samarali vositalaridan biri bojxona auditini joriy etish. [2]

Shu o‘rinda alohida ta’kidlash joizki, Jahon savdo tashkiloti(JST)ning savdo tartibotlarini soddalashtirish to‘g‘risidagi Bitimning 7.5-moddasida JSTga a‘zo davlatlar o‘z bojxona ma‘muriyatchiligini takomillashtirish uchun bojxona auditini joriy qilishga oid talablarni bajarishlari lozimligi ko‘rsatilgan.

Ushbu maqsadda, rivojlangan mamlakatlar tajribalarini o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘lib, jahonning etakchi rivojlangan mamlakatlar (Amerika Qo‘shma Shtatlari, Kanada, Farbiy Yevropa mamlakatlari, Yaponiya, Janubiy Koreya) amaliyotida tovarlarning erkin muomalaga chiqarib yuborilgandan so‘ng bojxona nazoratidan o‘tkazish umimiy tovarlarning qariyb 90 foizini tashkil qilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Bu sohada ko‘plab xorijlik olimlar Kudryaysev O. E., Salavyev V.V., Lunevalar E.P. izlanishlar olib borib nazariy qarashlarini bildirib o‘rganlar. Mazkur qarashlarda ikki xil talqin mavjud bo‘lib, Bojxona auditini bojxona nazoratining bir shakli ekanligi yoki, tovarlar erkin muomalaga chiqarib yuborilganidan so‘ng o‘tkaziladigan alohida kompleks chora tadbirlar shakli sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Mazkur fikrlarning asosida bojxona auditining asosiy maqsadi – eksport va import operatsiyalari asosida davlatlar chegaralaridan o‘tgan tovar va transport vositalarini xavf mezonlariga asoslangan tanlab tekshirish prinsiplari asosida aniqlangan bojxona yuk deklaratsiyasida aks ettirilgan bojxona qiymati to‘g‘ri hamda haqqoniy hisoblanganligini aniqlashdan iborat.

Aytish joizki, O‘zbekiston Respublikasining ko‘plab olimlari bojxona auditini tashkil etish borasida izlanishlar olib borilgan. Hususan, B.Hamdammov, S.Aripov, J.Qodirov, Sh.Azizov, M.Karimjonov, Z.Makkamovlar munozaralar yuritib, bojxona auditini Respublika tashqi savdo tovar aylanmasini yanada faollashtirish maqsadida TIF sub’ektlari manfaatlarini ichki va tashqi bozorlarda himoya qilishni kuchaytirish, ularning faoliyatini yanada erkinlashtirish, xalqaro transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish orqali eksport tovarlarini transportda tashish xarajatlarini kamaytirish, bojxona to‘lovlaridan berilayotgan imtiyozlar

monitoringini muntazam o'tkazilishini ta'minlash lozimligi yuzasidan fikrlar bildirilgan [3].

Tadqiqot metodologiyasi.


Tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilarini bojxona auditiga tanlashda xavf mezonlari va ko'rsatkichlarini shakllantirish samaradorligiga erishish maqsadida turli xil yondashuvlarni qo'llaydigan bojxona ma'muriyatlarining qiyosiy tahlillarini o'tkazish har bir strategiyaning kuchli, zaif va o'ziga xos tomonlarini ta'kidlab o'tildi. Jahonning ko'plab rivojlangan davlatlar modellari bo'yicha natijalar, muvofiqlik istiqbollari, ijro samaradorligi va resurslardan foydalanishni taqqoslash bojxona xatarlarini boshqarish bo'yicha eng yaxshi amaliyot va saboqlarni tahlil qilindi.

Hatija va muhokamalar.

2020 yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bojxona ma'muriyatchiligini isloh etish va O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida" gi PF-6005-son Fanmoni asosida bojxona organlari faoliyatida bojxona auditini qo'llash belgilandi. Shuningdek, ushbu farmon ijrosini taminlash maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bojxona auditini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" gi 2021 yil 25 fevraldagi 101-sonli Qarori asosida xavflarni boshqarish tizimiga muvofiq tanlab tekshirishga asoslangan bojxona audit tizimi amaliyotda qo'llanila boshladi.

Bugungi kunda tadbirkorlik subyektlarining bojxona rasmiylashtiruvi uchun sarflaydigan vaqt va mablag'larini kamaytirish hamda tashqi savdo aylanmasi ortishi asnosida bojxona organlarining mavjud resurslaridan unumli foydalanish maqsadida bojxona ma'murchiligi xalqaro standartlar talablari hamda rivojlangan mamlakatlar tajribalari asosida kundun kunga takomillashtirib borilmoqda. Xususan, halol tadbirkorlarning tovarlari yashil va sariq yo'laklar orqali soddalashtirilgan tartibda bojxona nazoratdan o'tkazish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Bu ham o'z navbatida bojxona chegaralaridan olib o'tiladigan tovarlar va taransport vositalariga nisbatan imtiyozli tartibda yalpi bojxona nazoratini qo'llamaslik asnosida halol tadbirkorlarni qo'llab quvvatlashga sabab bo'luvchi asosiy omillardam biridir.

Biroq, tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, so'nggi yilda qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarining miqdori ortib borib uch yil mobaynidagi farq 29 foizni tashkil etmoqda (1-rasm).



1-rasm. 2020-2022 yillarda qo'shimcha hisoblangan to'lovlar

Bir tarafdano lib qaraganda, Tovalar chiqarilgandan keyin bojxona nazoratini oqilona tashkil etish bojxona auditi ob'ektini tanlashning samarali mexanizmi mavjudligini nazarda tutadi. Tekshiruv ob'ektini to'g'ri tanlash audit faoliyati samaradorligini oshiradi, ya'ni bojxona to'lovlari va jarimalarning qo'shimcha undirilishini kafolatlaydi, jinoiy huquqbuzarliklar va ma'muriy huquqbuzarliklarni aniqlash imkonini beradi, shuningdek, tashqi savdo faoliyati ishtirokchilariga ta'sir etish hamda profilaktika choralariga ega.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar yani bojxona rasmiylashtirilganidan so'ng qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarning miqdori ortib borishi, mazmunan bugungi kunda ko'plab tadbirkorlar tomonidan bojxona auditining mohiyati, undan foydalanish istiqbollari, audit natijalari tadbirkorlarning kegingi faoliyatiga ijobiy tasirlari yuzasidan noaniq tushunchaga ega ekanligini ko'rish mumkin.

Ho'sh aslida bojxona auditining ko'plab horijiy davlatlar tajribalarida qanday ijobiy taraflari mavjud?

Shuningdek, Jahon bojxona tashkilotining 2018 yildagi "Bojxona auditi o'tkazish yuzasidan qo'llanma"sida ham Bojxona auditini qollash orqali bojxona organlari o'zlarining mavjud kuch va vositalarini maqsadga yo'naltirilgan holda qo'llashlari oqibatida samaradorlikka erishishi va biznes yuritish sub'ektlari bilan do'stona munosabatga kirishishi, qonunlarga bo'ysinuvchanlikning oshishi, savdoni rag'batlantirilishi kabi ijobiy natijalarga erishilishini ta'kidlab o'tgan.

Tadbirkorlar nuqtai nazaridan qaraganda, bojxona rasmiylashtiruvidan so'ng tovarning qiymati iste'molchi uchun yakuniy narxni hisoblash uchun asos bo'ladi, hamda bojxona to'lovlari va soliqlarni to'lash xarajatlari qanchalik yuqori bo'lsa, mahsulot uchun raqobatbardosh narxni yaratish shinchalik qiyin bo'ladi.

Aslida tadbirkorlar uchun bojxona to'lovlari va soliqlarni ortiqcha to'lashning ko'p uchraydigan sabablaridan biri tovarlarning bojxona qiymati va tasnifini belgilashda bojxonaga taqdim etilayotgan ma'lumotlarni shakllantirish tartibi va bojxona qonunchiligining bilmasligi yoki to'g'ri qo'llay olmaslik hisoblanadi.

Fikrimizning dalili sifatida Rossiya tadqiqotchilari tomonidan korxonaning o'z tashabbusi bilan bojxona auditini qo'llash natijalari yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqot tafsilotlarini izoh sifatida keltirib o'tishni joiz deb topdik.

Tadqiqotda import qiluvchi kompaniya bir ishlab chiqaruvchi bilan uzoq muddatli shartnoma asosida muntazam ravishda tovar yetkazib beradi va ushbu tovarlar assortimenti uzoq vaqt davomida o'zgarmaydi.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra, tovarlarni erkin muomalaga chiqarish jarayonida tovarlarga oid so'ralgan hujjatlar va ma'lumotlar to'liq taqdim etilmagani sababli, bojxona qiymati yuqori stavkalar bilan hisoblanib kelingan va natijada, bojxona organi deklaratsiyada bir muncha yuqori bojxona qiymatini qabul qilgan va bojxona to'lovlari ko'p to'lab kelingan.

Tabbirkorning ushbu qaror ustidan yuqori bojxona organlariga va sudga shikoyat qilish bo'yicha bir qator muvaffaqiyatsiz urinishlardan so'ng, tovarlarni chiqarishda kompaniya tovarlarning bojxona qiymatini deklaratsiyalashda uni aniqlashning 6-usulidan foydalana boshlagan. Bojxona bojlari va soliq solinadigan bazani hisoblash uchun asos shartnoma narxi emas, balki bojxona organi tomonidan ilgari taklif qilingan va bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlashni hisoblashda foydalanilgan bojxona qiymati bo'lgan.

Natijada uzoq vaqt davomida kompaniya import qilingan har bir tovar partiyasi (har biri taxminan 30 ming yevro) uchun 3 ming yevro ekvivalentidagi bojxona to'lovlarni to'lagan. O'rtacha oyiga kompaniya 10 ga yaqin shunday yuklarni import qilgan.

Kompaniya tomonidan topshirilgan bojxona tekshiruvidan so'ng audit kompaniyasi mutaxassislari mijozning aniqlangan xavfni bartaraf etish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoniga axborot va tahliliy yordam ko'rsatadi hamda bojxonaga taqdim qilinadigan hujjatlarning tayyorlash tartiblari bo'yicha amaliy yordam ko'rsatiladi.

Yani, kompaniyaning xorijiy hamkoriga bojxona organining qo'shimcha hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etish to'g'risidagi talablarining asosiligi va qonuniyligini tushuntirish natijalari bo'yicha tashqi iqtisodiy shartnomaga qo'shimcha bitim imzolandi. Xorijiy yetkazib beruvchi bojxona qonunchiligi talablariga javob beradigan ma'lumotlar va hujjatlarni taqdim etdi.

Natijada, kompaniya har oyda 30 ming yevrodan ortiq bojxona to'lovlarini asossiz to'lash zaruriyatini bartaraf etishdan tashqari, mijoz savdo hajmini 40 foizga oshirib, raqoba uchun eng zarur bo'lgan tovarlarni sotish narxini pasaytirgan.[4]

Yuqorida keltirilgan mulohazalar tadbirkorlik faoliyatining bir turi sifatida faoliyat yuritadigan audit Tashqi savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar uchun ko'plab afzalliklarga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Biroq, ushbu faoliyat turi ham ayrim kamchiliklardan holi emas.

Jumladan, tashqi savdo faoliyati ishtirokchilari tomonidan ijobiy auditorlik xulosasini sotib olish imkoniyati xavfi mavjud. Shuningdek, tashqi savdo faoliyati ishtirokchilari hususiy bojxona auditorlik korxonalariga bojxona auditiga ishongani kabi ishonmasligini ko'rishimiz mumkin.

Chunki, bojxona auditida hususiy auditorlik korhonalardan farqli o'laroq Tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlarini tanlash jarayoni bir muncha puhta tashkil etilib, amaliyotda bojxona organlari tashabbusi bilan o'tkazilmoqda. Jahon banki guruhining tavsiyalariga ko'ra Audit uchun potentsial sub'ektlarni tanlash xavf profillariga asoslangan bo'lishi kerak. Audit uchun nomzodlarni ishlab chiqish mezonlari razvedka ma'lumotlari, maqsadli tendentsiyalar va ustuvor yo'naltirilgan xatarlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilishi kerak. Mazkur jarayonda asosan quyidagi kabi ko'plab omillar hisobga olinadi:

- 1 • import qiluvchi/eksport qiluvchi yoki tovarlarga nisbatan oldingi qoidabuzarliklar;
- 2 • import/eksport qiymatlari va hajmlari;
- 3 • birinchi marta import qiluvchi/eksport qiluvchi;
- 4 • import/eksport qilinadigan tovarlar turlari;

[4]

Shuni alihida ta'kidlash joizki, tadbirkorlarga nisbatan kelgusidagi eksport va import operatsiyalarida "Yashil" va "Sariq" yo'laklar orqali soddalashtirilgan tartibda rasmiylashturuvni amalga oshirilishi, yoki "Qizil" yo'lak orqali ortiqcha bojxona nazorat tartibotlridan o'tishi zaruriyatining vujudga kelishi, ularning o'zlari tomonidan sodir etilgan ijobiy (barcha qonunchilik va bojxona tartibotlariga

rioya etilishi) yoki salbiy (davlat byudjetiga lozim bo'lgan bojxona to'lovlarini to'lashdan qochish) xatti – harakatlariga bevosita bog'liq bo'lib qolmoqda. Albatta tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilarining bojxona auditi bilan hamkorlik qilmasliklari, yoki muntazam ravishda qonun buzulish holatlariga yo'l qo'yishlari oqibatida ular tomonidan bojxona chegralaridan olib o'tilayotgan tovarlarga nisbatan to'liq bojxona nazoratini qo'llashga, ortiqcha vaqt va mablag' sarfiga, tovarlar aylanmasini sekinlashuviga olib keladi.

Jahon amaliyoti tajribalaridan keng foydalangan holda bugubgi kunda mamlakatimizda tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida bojxona rasmiylashtiruvidan so'ng bojxona auditi yordamida qo'shimcha bojxona to'lovlarining aniqlanish xolatlari tahlili audit uchun potentsial sub'ektlarni tanlashning asosiy mezonlaridan biri sifatida qo'llanilib kelmoqda. Ularning hisoblangan miqdori 2021-yilda avvalgi yilga nisbatan 6 foizga kamaygan bo'lsa, 2022-yilda 2021-yilga nisbatan 35 foizga ortganligini ko'rish mumkin. Shu bilan birga, qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarining kelib chiqish sabablari tahlil qilinganida, asosan import tovarlarining bojxona qiymati noto'g'ri belgilanishi (25-42 foiz) va imtiyozlarning noto'g'ri qo'llanilishi (38-45 foiz) yo'nalishlari salmoqli bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

1-jadval

Bojxona organlarida 2020-2022 yillarda bojxona to'lovlaridan qochish xolatlarning kelib chiqish sabablari (foizda)

No	Kelib chiqish sabablari (yo'nalishlari)	2020 y.	2021 y.	2022y.
1	Bojxona qiymati noto'g'ri aniqlanilishi bo'yicha	16,4	25,0	42,1
2	Imtiyozlarni noto'g'ri qo'llanilishi bo'yicha	63,3	45,4	38,7
3	TIF TN kodini noto'g'ri qo'llash bo'yicha	5,2	8,0	7,2
4	Kelib chiqish sertifikat bo'yicha	7,6	15,5	4,8
5	Boshqa holatlar bo'yicha	7,5	6,0	7,2
	Jami:	100,0	100,0	100,0

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida bojxona rasmiylashtiruvidan so'ng bojxona auditi yordamida qo'shimcha bojxona to'lovlarining aniqlanish xolatlari ortib borayotganligi shuni ko'rsatadiki, ayrim

tadbirkorlarimiz tomonidan o'zlariga nisbatan kelgusida qo'llaniladigan bojxona tartibotlarining soddalashuvi yani, bojxona nazorati vaqtida "yashil yo'lak"lar oqali imtiyozli tartibda nazoratdan o'tish imkoniyati, aynan ular tomonidan qoldiriladigan va bojxonada mavjud havflarni boshqarish tizimida shakllanadigan ma'lumotlarga bevosita bog'liqligi yuzasidan kengroq tushunchaga ega emasliklaridan dalolat beradi.

Ushbu naqsadlarda bojxona auditi sohasida so'nggi vaqtlarda olib borilayotgan isloxlarga qisqacha to'xtaladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 25 fevraldagi "Bojxona auditini o'tkazish tartibini tasdiqlash to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida" 101-son qarori, shuningdek, Jaxon bojxona tashkilotining bojxona auditi bo'yicha bergan tavsiyasi hamda bojxona auditini tashkil etish va o'tkazish jarayonlarini halqaro talablar asosida yanada takomillashtirish maqsadida ko'plab me'yoriy normalar ishlab chiqilmoqda.

Mazkur normalardan birining ayrim jixatlarini yoritadigan bo'lsak, bojxona auditiga tayyorgarlik ko'rish bosqichida vakolatli shaxs to'g'risida oxirgi uch yillik ma'lumotlar tahlil qilinib, bojxona auditini o'tkazish vazifalari va yo'nalishlari aniqlanishi belgilab qo'yilgan.

Shu bilan birga, bojxona auditidan o'tkazilgan shaxsning bojxona sohasiga oid faoliyatida aniqlangan hato va kamchiliklar hamda mavjud muammolarni bartaraf etish, ularning qayta takrorlamasligini oldini olish, tashqi iqtisodiy faoliyati ishtirokchilarining o'z-o'zini baholash ya'ni komplayens nazorat darajasini oshirish maqsadida, bojxona auditi yakunida bojxona auditi xodimi tomonidan tegishli qonunchilik hujjarlari asosida bepil taklif va tavsiyalar berish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, bojxona organlari tomonidan bojxona auditini o'tkazish jarayonida hamkorlik qilmaslik hamda audit yakunida salbiy baholanish natijalari, bojxonada mavjud havflarni boshqarish tizimi orqali avtomatik tarzda qayd etilishi hamda ushbu tadbirkorga nisbatan reyting shakllinishiga, bu esa kelgusida tovarlarni bojxona chegaralari orqali olib o'tilishida boxona nazoratining ayrim shakllaridan ozod etish kabi imtiyozlar taqdim etilmasligiga olib keladi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 23 yanvardagi "Tadbirkorlik sub'ektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-39-son qarorida 2024 yil 1 apreldan boshlab tadbirkorlik sub'ektlariga subsidiya, imtiyoz va pereferensiyalar ularning reytingi darajasidan kelib chiqqan holda joriy etilishi belgilab berildi.

Hulosa va takliflar.

Mazkur bildirilgan fikrlarda shuni hulosa qilish mumkinki, endilikda tadbirkorlarimiz tomonidan qonunchilikka to'liq rioya etilishi, bojxona auditi bilan xamkorlik qilinishi, bojxona nazorati va rasmiylashtiruv davrida tovarlarga oid yo'l yuk kuzatuv hujjatlari va elektron ma'lumotlarni to'g'ri va to'liq taqdim qilishi, ularga nisbatan ijobiy ma'lumotlar shakllanishiga va yuqori reytinglarda baholanishiga olib keladi. Buning natijasi esa, ularning tovarlarini bojxona nazoratidan o'tkazishda bojxona organlari tomonidan soddalashtirilgan tartibni qo'llash va ko'plab bojxona hamda soliq imtiyozlaridan foydalanish imkoniyatini yaratilishiga olib keladi.

Bundan tashqari, endilikda tadbirkorlarimiz tomonidan bojxona auditini kutmasdan tashabbus tarzida audit o'tkazilishi natijasida o'z faoliyatining qonuniyligiga oldindan baho berish, bojxona auditi jarayonida biznes yurituvchi bo'yicha foydali maslahatlar olish, bojxona bilan munosabarga kirishishda vaqt va pul mablag'larining tejaliishiga olib keladi.

Shu bilan birga, tadbirkorlik faoliyatining bir turi sifatida bojxona auditini faoliyatga joriy etilishi bojxona auditi institutining istiqboldagi rivojlanish bosqichlaridab biri sifatida taklif etamiz. Bunda, mavjud kamchiliklarni bartafa etish yuzasidan quyidagi fikrlarni beramiz:

- bojxona auditi sohasida faoliyat yurituvchi barcha tashkilotlar bojxona xizmati tomonidan akkreditatsiyadan o'tgan bo'lishi kerak, bu esa tashqi savdo faoliyati ishtirokchilariga ularga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatiga ishonch hosil qilish imkonini beradi.

- hususiy bojxona auditorlari tomonidan bojxona xizmati darajasida qonuniylikka qat'iy rioya qilishlari kerak bo'lgan bojxona tekshiruvlarini o'tkazishning aniq standartlari va usullarini, shuningdek, tekshirish natijalarini aks ettirish shakllarini ishlab chiqish kerak;

- davlat organlariga auditorlik tashkilotlari tomonidan noto'g'ri ma'lumot berganlik uchun javobgarlik choralari, shu jumladan jinoiy javobgarlik choralari belgilab qo'yilishi kerak, bu tashqi savdo faoliyati ishtirokchilari tomonidan ijobiy auditorlik xulosasini sotib olish imkoniyatini kamaytiradi.

Hususiy auditorlik xulosasi tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchisini past xavf darajasiga tasniflash yoki unga maxsus soddalashtirishlar va preferensiyalar berish to'g'risida qaror qabul qilishda foydalaniladigan asosiy hujjat bo'lmasligi, faqat bojxona organlari uchun qo'shimcha axborot manbai bo'lib xizmat qilishi kerak. Bojxona auditi esa uning aksi sifatida tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchisini past xavf darajasiga tasniflash yoki unga maxsus soddalashtirishlar va preferensiyalar

berish to'g'risida qaror qabul qilishda foydalaniladigan asosiy hujjat bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birga, bojxona auditi tizimining mohiyatini tushungan holda ishbilarmonlik mihiti tomonidan uni keng joriy qilish, ushbu institutga talab ortib borishi, hususiy auditorlik firmalarining vujudga kelishi va bosqichma bosqich bojxona organlarining o'z faoliyatining ayrim jihatlari hususiy sektorga ko'chishi, tashqi savdo faoliyatining jadallashishi, tashqi iqtisodiy faoliyatning yanada rivojlanishi kabi ijobiy o'zgarishlarga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son.
2. А. В. Агапова, И. А. Гокинаева, А. А. Мелешкина Направление «таможенный аудит»: внедрение в целях развития электронной таможни DOI: 10.31107/2075-1990-2019-3-106-116
3. "Bojxona auditi asoslari" (2021) O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi Bojxona instituti. J.Qodirov, Sh.Azizov, M.Karimjonova, Z. Makkamov.
4. А. В. Агапова, И. А. Гокинаева, А. А. Мелешкина Направление «таможенный аудит»: внедрение в целях развития электронной таможни DOI: 10.31107/2075-1990-2019-3-106-116.
5. O'zbekiston milliy axborot agentligi. <https://uza.uz/uz/posts/bozhkhona-auditi-tadbirkorlarning-va-ti-va-moliyaviy-kharazh-16-09-2020>.
5. World customs organization. Guidelines for post-clearance audit. June. 2018. volume 1.
https://www.wcoomd.org//media/wco/public/global/pdf/topics/key-issues/revenue-package/pca_guidelines_vol1.pdf?la=en.
6. World customs organization. Monitoring Report on Post Clearance Audit. October.2022.
<https://www.wcoomd.org/en/media/newsroom/2022/june/pca-monitoring-and-follow-up-mission-to-uzbekistan.aspx>